

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673847>

Sayyora Muxammadiyeva

Umumiy pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, xususan Xo'ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g'oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются исторические корни образования, идеи, выдвинутые в исследованиях по проблеме духовно-нравственного воспитания в нашей стране, в частности, важность гуманитарных идей Ходжи Ахмада Яссави в воспитании молодежи сегодня.*

Annotation. *This article discusses the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problems of spiritual and moral education in our country, in particular, the importance of the humanitarian ideas of Hodja Ahmad Yassavi in the education of young people today.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, ta'lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma'naviy meros.*

Yassaviy Shaxsni Shakllantiruvchi omil sifatida, eng avvalo, ustozni qo'yadi. U insonning yaxshi xulq va odobni, maqbul ish va ma'qul kasbni o'zlashtirishi ustozsiz amalga oshmaydi, deb belgilaydi. Ustozlarni yoshlarni yaxshi kunga etaklovchi shaxs deb hisoblab, ularga yuksak talablarni qo'yadi. Savodsiz ustozlarni tanqid ostiga oladi. Shuningdek, badiiy so'z, musiqaning, yoshlarga nafosat tarbiyasini berishda ahamiyati kattaligi, so'z- suhbat - jon ozigi ekanligini tushuntiradi. Odamni boyligi emas, balki uning yaxshi ishlari, ilmi azoblardan qutqaradi, shu sababli inson har bir xatti-harakatining me'yori, o'lchamini bilishi zarur. Barcha yomon ishning asosida dunyoparastlik, ochko'zlik yotadi. Johillar molu dunyo yigish uchun Xudoni, podshoni, odamlarni aldaydilar, fozillar esa, aksincha, Xudoga itoat qilib, pokiza yashashlari kerak, degan fikrlarni bayon qiladi.

Inson o'zini-o'zi boshqara olishi, kuchli iroda egasi bmlishi, Ya'ni yomon ta'sirlarga berilmasligi lozim. Bu xususiyatlarni egallash uchun esa unga ixlos zarur bmladi, deb quyidagi satrlarni keltiradi:

Boshim berib, belim boglab, qilsam ixlos,

Nafsi shayton changalidin bo'lsam xalos,

Jon berarda madad qilsa Xizr, Ilyos,

G'avsul-giyos hatmi "yosun" qilarmukin?.

Ko'rinib turibdiki, insonning ixlosi uni yomon ishlardan asrab qoladi.

Xoja Ahmad Yassaviy yashab ijod qilgan davrda mavjud bo'lgan turli mafkuraviy goyalarning barchasi ham uning ijodida aks etgan, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham Shaxsni Shakllantiruvchi omillar sifatida juda chuqur falsafiy qaraShlarni Xoja Ahmad Yassaviy ijodidan axtarish sun'iylikni keltirib chiqarishi mumkin. Buni anglaSh esa bizning tadqiqotimiz uchun juda muhimdir.

Xoja Ahmad Yassaviy mzinging «Hikmatlar» nomli tmplamida Shaxsni Shakllantiruvchi omil sifatida, avvalo, u Shaxsni faollik, va o'zini-o'zi tanqidiy baholaSh kabi sifatlarni kmrsatadi. Shuningdek, u insonni yomonlikdan nafratlanuvchi, ezgulikni himoya etuvchi shaxs, deb hisoblaydi:

Dunyo uchun gam ema,
Haqdan o'zgani dema,
Kishi molini ema, sirot uzra tutaro.

Ko'rinib turibdiki, Ahmad Yassaviyning juda ko'p fikrlari dunyo o'tkinchi ekanligi, qilgan barcha yaxshi ishlarning, albatta, yodga olinishi va u shaxsning hayot mazmuniga aylanishini ifodalovchi mohiyatga ega.

Xoja Ahmad Yassaviy zulmga chidash, ishq-muhabbat, smfiylar, shayxlar va darveshlarning riyozatu karomatlari haqida yozadi. Ahmad Yassaviyning xalqsevar va insonlar qalbidan mrin oluvchi jmsheqin nidolari komil inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omil sifatida zamondoshlarini va bugungi kun yosh avlodini ham faqat yaxshilik, mehnatsevarlik, ulug'lik, mardlik, poklik, ilmsevarlikka undaydi:

Qul Xoja Ahmad er bo'lmasang o'lgan yaxshi,
Qizil yuzing qaro erda so'lgan yaxshi,
Tufroq sifat er ostida bo'lgan yaxshi,
Zoti ulug' Xojam, siginib keldi sango.

Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yana bir jihati tarkidunyochilik, Ya'ni gunoh, nuqson, kamchiliklarni tark etish aqidasi. Bunda ikkita goya - yaxshi fazilatlarini takomillaShtirish va nuqsonlarni tark etish bir- birlarini to'ldiradi.

Har bir kishi umri davomida xatolar qilishi mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy mz xatolarini tuzatishning birdan bir yo'li - tavba qilish, o'z xatosini o'zi tuzatishga intilish, o'zini-o'zi qayta tarbiyalaSh, deb tushuntiradi va o'zi ham umri davomida bunga amal qiladi.

Xoja Ahmad Yassaviy odob bir daraxt bo'lsa, hayo uning mevasidir, deb ko'rsatadi. Agar Shaxsda takabburlik mavjud bo'lar ekan, undagi saxovat, odob, axloq, hayo chiroqlari mchadi, deb quyidagi satrlarni keltiradi: Ulug'-kichik yoronlardin odob ketti,

Qizu za'if juvonlardin hayo ketti,
"Alhayou min al-imon" deb Rasul aytti
Hayosiz qavm ajoyiblar bmlidi, do'stlar.

Hadis so'zlari "Alhayou al-imon" ni Rasulloh tomonidan aytilishi kabilar ana Shu "daraxt"ning hayotiga, Ya'ni har bir Shaxsgagina emas, balki butun bir millat hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, odamlar o'rtasida hurmatsizlik, oqibatsizlik,

Shafqatsizlik kabi sifatlarni kuchaytiradi. Bunday ijtimoiy-ma'naviy muhitda riyo, bir- biriga ziyon berish, qavmlar orasidagi mojarolar va makkorlik kabi salbiy holatlar odatga aylanadi.

Albatta, bu illatlarning yuzaga kelishi Shaxs kamolotida oxir-oqibat fojeali holatlarni keltirib chiqaradi. Xoja Ahmad Yassaviy qator hikmatlarida aynan Shu fojealarni tarbiyaga bogliq sabablarini fikriy tahlil qilib bera olgan. Xuddi Shu maqsadda u tasavvuf ilmi asosidagi tarbiyagina yoshlarni eng olijanob, yuksak fazilatli, Xudoning solih bandasi sifatida insonparvar qilib etishtiradi, deb tushuntiradi.

"Haqiqatning ma'nosiga etgan kishi,
Behud bo'lib kuyub yonar ichi toShi".

Ya'ni, haqiqatning ma'nosiga etgan har bir kishi komil, bilimdon kishidir. U befarq, loqayd emas. Shu tufayli ham u "Ichi-toshi" yongan odamlar diydorini qo'msaydi. Ular bilan birga bo'lishni orzu qiladi, ularni hayolan izlaydi. Botin va zohir, Ya'ni agarda kishining ichi va tashqarisida o'zaro uyg'unlik bo'lsa, bu uni komillikka eltadi, deydi. Chunki bu ikki jihat bir-birini to'ldirib takomillashadi. Ba'zilar uning nazarida komil, e'tiqodiga sodiq kishilardек tuyuladi. Lekin, bunday kishilarda ham u bir qator nuqsonlarni sezadi va nuqsonli kishi hech qachon komil Shaxs bo'lmaydi, degan fikrga keladi. Loqayd, dunyotalab, mol-dunyo qayg'usidayurgan, ko'p so'zlar so'zlab o'zini ko'rsatishga mrinuvchi kishilarni u Shular qatoriga kiritadi:

Ey bexabar, gaflat bilan uyquda - sen,
Dunyo tilab kecha-kunduz qayguda sen,
Toat qilmay so'zlar so'zlab behuda sen,
Haq jamolin ko'rsatmasa zomin bo'lay.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra komil inson dunyoparast bo'lmasligi lozim. Aks holda gaflatda qolib, hayotdagi maqsadini anglamay qoladi. Biroq u bunday Shaxslarga e'tiborsiz kishilarni ham qattiq tanqid ostiga olib, quyidagi nasihatlarini davom qildiradi:

Qul Xoja Ahmad, nasihatni o'zungga qil,
Ey behabar, xalqni qo'yib, o'zingni bil.
Togdan ogir gunohing bor, o'zungga kel,
Haq jamolin ko'rsatmasa zomin bo'lay.

Bu bilan Xoja Ahmad Yassaviy har bir insonda ma'lum darajada bir gunoh mavjud ekanligini ko'rsatib, u kishining o'zi mziga tanqidiy nazar bilan qaray olishi, mz xatolarini bartaraf etishga harakat qilishini talab qiladi. Bu, avvalo, o'zini-o'zi anglaShi lozim, deb ko'rsatadi. Uzingni o'zing tahlil qilib o'rgan, ayniqsa, Haqqa intilish uchun o'zingning tayyorgarligingni aniqlaShing lozim, deydi Yassaviy. Ya'ni, bu bilan u inson o'zini-o'zi tushunib etib, qilgan xatolarini anglab, tavnaga kelishi, o'zini qaytadan Shakllantirishi, o'zini-o'zi tarbiyalaShi kerak, deb tushuntiradi.

Xoja Ahmad Yassaviy mz hikmatlarida qaysi elda ichki zmravonlik va ruhiy toliqish golib ekan, u elda nodonlik avjga chiqishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u qaysi yurtda ma'naviy qadriyatlar qimmatini pasaytirilib, adolat ustunlari qulatilsa, bunda gofil va munofiq bandalarning baland martaba va mavqelarga ko'tarilmogi uchun keng yo'l ochiladi, deb

e'tirof etadi. Demak, mana shunday elda shaxs kamolotiga ham putur etkaziladi. Shu bilan bir qatorda nodonlik ofatlari ham yuzaga keladi. Ya'ni komil insonni shakllantirish yo'liga to'siqlar qo'yiladi. Ushbu nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik kabi hech bir adib ranj, azob-uqubat chekkan bo'lmasa kerak. Shu sababdan ham Xoja Ahmad Yassaviy «Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay», deb xalqqa iltijolar qiladi. Uning ko'p hikmatlari nodonlikdan Shikoyat mazmunida yaratilganligi ham bejiz emas. Er ostiga qochib kirdim nodonlardin,

Iljim ochib duo tilab mardonlardin.

G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,

Dono topmay er ostiga kirdim mano.

Mabodo, egrilik, nohaqlik kabi salbiy odatlar yo'l deb ataladigan bo'lsa, bunda nodonning yo'li noto'g'ri, egri yo'ldir. Shuning uchun bunday Shaxsni yaxshilik, ezgulik, to'g'rilikka yo'llash natijasiz bir harakatdir. Natijasiz harakat esa dono, bilimdon odam uchun ham hijron zahriday qon dardidir.

Dogi hijron ezdi bagrim, qoni dardmand,

Dono tufrog, nodonlarning ko'ksi baland

Oyat, hadis bayon qilsam, qilmas pisand,

Ko'ksim teShing, dardu g'amga to'ldim mano .

Ahmad Yassaviyning bir-birining mazmunini to'ldirib boruvchi 14 ta hikmatida faqat "Zoti bilim libosidan mahrum", Ya'ni kaltafahm va xudbin kimsalargina nodon hisoblanmaydi. U olimman, deb kitob o'qib, ma'nosini uqmaydiganlarni, fikrsizlik zulmatidagi kishilarni, ruhi qorong'u amaldor Shaxslarni ham ashaddiy nodonlar safiga qo'Shgan. Uningcha, komil insonni Shakllantiruvchi omil - bu faqat bilim emasligini ko'rsatib, "yoronlardan adab" ning ketishini ham, avvalo, nodonlik tazyiqidan, deb biladi. Xoja Ahmad Yassaviy keyingi fikrlarida halol bilan haromning farqiga bora olmaydigan nafsparast xaloyiq uchun "maloikdin" Sharm qiladi. Demak, komil insonning mardligi va donoligi, oyat, hadislarni tushunib etishi, nafsni tiyib o'zi-o'zini tarbiyalay olishidadir, deb hisoblaydi.

Nodonlarni mendan so'rma, ko'ksum jaqa,

Haqdin qo'rqib motam qo'rsam, kular qah-qah,

Og'zi ochuq, nafsni ulug', misli laqqa,

Nodonlardan qo'rqib senga keldim mano.

Yuqorida keltirilgan bir qator hikmatlardan ko'rinib turibdiki, Xoja Ahmad Yassaviy uchun yoshlarning komil inson bo'lib Shakllanish asosini ruhiy poklanish, nafsni tiyish, irodani kuchaytirish, o'zini o'zi qayta tarbiyalash kabi omillar taShkil qiladi. Haqiqatan ham, bu omillar Shaxsning ma'naviyati, dunyoqarashi, ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardir.

Albatta, insonning shaxs, shaxsning esa komil inson bo'lib Shakllanishida biologik omillardan tashqari, ijtimoiy ta'sirlarning, Ya'ni atrof-muhit, ta'lim-tarbiya kabi jarayonlarning ahamiyati kattadir. Xoja Ahmad Yassaviy yashab ijod qilgan davrda esa

ijtimoiy omillarga nisbatan tarkidunyochilik aqidasi yuqori turgan davr hisoblanadi. Buni ko'pgina tadqiqotchi olimlar ham maz ilmiy tadqiqotlari orqali tasdiqlaganlar. Jumladan:

Ayo do'stlar, pok ishqini qo'lga oldim,

Bu dunyoni dushman tutib yurdum mano.

Lomakonni sayr etibon maqom oshtim.

Dunyo - o'qbin yuz ming taloq qo'ydim mano.

Demak, Xoja Ahmad Yassaviy komil inson va uning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga, katta e'tibor qaratadi. Shaxsning voyaga etishida nasl, tarbiya, muhit va boshqa qator omillarga e'tibor bilan qarashni kmrsatadi. Shu bilan birga, u maz zamonasida Yassaviylik ta'limotidan kelib chiquvchi qator omillarning mrnini ham alohida ta'kidlagan.

Xulosa qilib aytganda Yassaviy hikmatlari aososida kollej talabalariga ta'lim-tarbiya berishning alohida shakllari o'z ichiga quyidagilarni oladi: Yassaviy hayoti va iodiga oid adabiyotlarni, badiiy asarlarni, alloma yaratgan hikmatlarni o'qish - o'rganish; tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyati bilan tanishish, "Buyuk tasavvuf allomalari komil inson haqida", "Yassaviy- buyuk mutaassiv", «So`fiylar kamtarlik haqida», «Poklik iymondandir» kabi mavzularda suhbatlar o'tkazish, Yassaviy pedagogik qarashlariga oid mustaqil ishlar, referatlar tayyorlash, tasavvuf allomalari hayoti va ijodiga oid teleko'rsatuvlar, filmlarni tomosha qilish, tarixiy muzeylarga sayohat, tarixchi, faylasuf va pedagog olimlar bilan davra suhbatlari tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. – T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2001 yil.
2. Muxammadiyeva, S., & Farsaxonova, D. (2020). PEDAGOGY OF EASTERN THINKERS THE ISSUE OF ETHICAL EDUCATION IN THEIR VIEWS. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. .Pardayeva K. Abdulla Avloniy asarlari uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining metodik manbasi sifatida. Xalq ta'limi o'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2020 5-son (sentabr-oktabr)